



DIALECTICS OF NATIONAL AND UNIVERSAL CULTURE IN AN INFORMED SOCIETY

Ilham Tairov

senior lecturer, Doctor of philosophy in philosophical sciences
Fergana State University
Uzbekistan, Fergana

ABOUT ARTICLE

Key words: Information, Information Society, Culture, National and universal culture, spiritual heritage.

Received: 10.12.24

Accepted: 12.12.24

Published: 14.12.24

Abstract: One of the modern problems in the humanitarian sphere is the analysis of contradictory aspects of the dialectic of universal and national culture in an informed society. This article highlights the impact of the flow of information on culture in the context of global information exchange, as well as its distinctive features, factors for the development of culture.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MILLIY VA UMUMINSONIY MADANIYAT DIALEKTIKASI

Ilhom Tairov

katta o'qituvchi, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
Farg'ona davlat universiteti
O'zbekiston, Farg'ona

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: axborot, axborot jamiyati, madaniyat, milliy va umuminsoniy madaniyat, ma'naviy meros.

Annotatsiya: Gumanitar sohadagi zamonaviy muammolardan biri axborotlashgan jamiyatda umuminsoniy va milliy madaniyat dialektikasining ziddiyatli jihatlarini tahlil qilishdir. Ushbu maqolada global axborot almashinuvi sharoitida axborot oqimining madaniyatga ta'siri hamda uning o'ziga xos xususiyatlari, madaniyatni taraqqiy ettirish omillari yoritib berilgan.

ДИАЛЕКТИКА НАЦИОНАЛЬНОЙ И УНИВЕРСАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ИНФОРМАТИВНОМ ОБЩЕСТВЕ

Илхом Таиров

старший преподаватель, Доктор философии по философии
Ферганский государственный университет

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: информация, информационное общество, национальная и универсальная культура, духовное наследие.

Аннотация: Одной из современных проблем гуманитарной сферы является анализ противоречивых аспектов диалектики универсальной и национальной культуры в информативном обществе. В данной статье освещается влияние информационного потока на культуру в условиях глобального информационного обмена, а также его специфика, факторы развития культуры.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, huquqiy davlat qurish, qonun ustuvorligini o'rnatish, ma'naviy tiklanish, fuqarolik jamiyatini tarkib toptirish vazifalari, birinchi navbatda insonning milliy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish talabini zarurat sifatida kun tartibiga qo'ydi. Yangi O'zbekiston kelajagi ozod va ongli fikrlovchi fuqarolarning erkin tafakkur tarzi, ularning yangilikka tashna bunyodkorlik ruhi hamda faqat yangi o'zbek ma'naviy qiyofasi vositasida yaratilishi shubhasiz. Shu boisdan ham, Prezidentimiz ilgari surgan huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, ozod va ongli shaxs ma'naviyatini tarkib toptirish dasturlari pirovard natijada yurtimizda qonun ustuvorligi ruhini mustahkam qaror toptirish, aholini milliy istiqloq yo'lidan maqsadli boshqarish orqali amalga oshadi. Bu tajriba mamlakatimizda istiqloq yillarida amalga oshirilgan tub islohotlar ma'anaviy qiyofadagi ijobiy o'zgarishlar va fuqarolarimizda demokratik tafakkur shakllanishiga zamin bo'layotganida namoyon bo'lmoqda.

ASOSIY QISM

Axborotlashgan jamiyatning hozirgi bosqichida turli madaniyatlar va sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri oqibatida yagona dunyoni shakllantirish maqsadi butun dunyoning taraqqiyot strategiyasiga aylanmoqda. Uning ta'siri ostida biz yashayotgan dunyo boshqacha ahamiyat kasb etdi va bu u haqidagi bilimlarni va tushunchalarni o'rganishdagi yangi asosiy tamoyillarni topish vazifasini yukladi. «Bugungi dunyoda global jarayonlar orqali tinchlik va barqarorlikka tahdid va hurujlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va xavfli vaziyat turli sohada olib borilayotgan ishlarni tanqidiy baholashni va uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni talab etmoqda»[1].

Millat madaniy voqelik sifatida turli xil sohalarda namoyon bo'ladi, masalan, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, til, yozuv, san'at, she'riyat, din va boshqalar. Bu omillar millat mavjudligining muhim tamoyillarini yaratib beradi. Bu esa har doim davlatning suverenitetini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lishi kerak. Jamiyat madaniyati bu oddiy odamlar madaniyatining yig'indisi emas, bu qadriyatlarning shaxsiy va umumbashariy maqsadlar yo'lida birlashishi, ijodiy

mahsulotlar va odamlar jamoasining xulq-atvor standartlari to'plamini anglatadi. «Madaniyat esa, insonni jamiyat a'zosi sifatida shakllantiradigan yagona kuchdir. Milliy xususiyatlarni saqlagan madaniyat dunyoning ko'plab xalqlari bilan o'zaro aloqada bo'lsagina, yanada boyib boradi»[2].

Rus olimi V.Inozemsov quyidagicha ta'kidlaydi: «globallashuv nafaqat ko'kragigacha ko'tarilgan, umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan yagona sivilizatsiyaning shakllanish jarayonini, balki butunlay boshqacha vaziyatni – jamiyatning «G'arb» modeliga asosida kengayib, ushbu modelga dunyoning moslashishini anglatadi»[3]. Albatta, G'arbda ilm-fan yutuqlarini o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish har qanday davlat uchun zarurdir. Ammo modernizatsiya orqali G'arb madaniyati va qadriyatlarini to'liq o'zlashtirishga harakat qilgan mamlakat, shubhasiz, bir qator muammolarga duch keladi. Buning natijasida, ma'lum bir millat o'z madaniyatini yo'qotadi va aniq tasavvurga ega bo'lmagan jamiyat ichki qarama-qarshiliklarga asoslangan holda ziddiyatli holatlarni keltirib chiqaradi.

Rivojlangan davlatlar milliy-madaniy o'ziga xoslikni, milliy xususiyatlarni saqlagan holda modernizatsiyalash yo'lini tanladilar. Xususan, yapon islohotchilari deyarli bir asr oldin o'z yo'llarini «yapon ruhi va g'arb texnologiyasi» qoidasi asosida aniqladilar. Shu sababli Yaponiya o'zining milliy o'ziga xosligini, tarixiy va madaniy ildizlarini yo'qotmasdan yuqori rivojlangan davlatga aylandi. Bunday vaziyatni boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, masalan, Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya «global fikrlab, lokal harakat qil» tamoyiliga suyanib ish tutgan Yaponiya, Janubi-Sharqiy Osiyodagi Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar o'zligini, tarixiy-madaniy ildizlarini saqlagan holda, yuksak taraqqiy etgan davlatga aylandi.

Amerikalik olim S.Xantington o'zining «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi» kitobida milliy madaniyat mamlakat taraqqiyotiga katta ta'sir qilishini e'tirof etadi: «Madaniyat g'arblashtirilishining zaruriy sharti ham, iqtisodiy modernizatsiya va rivojlanishining muqarrar natijasi ham bo'lmaydi. Aksincha, modernizatsiya milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishni uyg'otishga yordam beradi... Jamiyat darajasidagi modernizatsiya mamlakatning umumiy moddiy farovonligi va harbiy salohiyatining o'sishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida madaniy me'yorning qadr-qimmatini tasdiqlaydi, odamlarni o'z madaniyatiga nisbatan ko'proq ishonishga undaydi. Shuning uchun g'arbdan tashqaridagi ko'plab jamiyatlarda mahalliy madaniy an'analarga qaytish holatini ko'rishimiz mumkin»[4].

Har bir madaniyat - bu davlatning ijodiy jihatdan o'zini namoyon qilish usulidir. Shu sababli, boshqa madaniyatlarni tushunish bizni nafaqat yangi bilimlar, balki yangi ijodiy tajribalar bilan boyitadi. Endilikda madaniy tarqoqlik kabi hodisa mavjud bo'lib, madaniy boyliklarni o'z-o'zidan va nazoratsiz o'zlashtirishni yuzaga keltiradi. Muxtasar qilib aytganda, hozirgi vaqtda globallashuv jarayonining asosiy muammolaridan biri madaniy muloqot masalalaridir. Globallashuv sharoitida sodir bo'layotgan «madaniy inqilob» oqibatida bir-biriga qarama-qarshi,

ammo bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikkita harakat: madaniy birlashish (unifikatsiya) va madaniy o‘ziga xoslik (identifikatsiya)ni saqlab qolish istagi paydo bo‘ldi.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida globallashuv jarayonlarini mahalliy, mintaqaviy ehtiyojlar va talablarni hisobga olingan holda, har qanday inson va millat oldida jamiyatni madaniy tanazzuldan himoya qilishga qaratilgan ishlarning izchil olib borilishi tamoyiliga rioya qilish orqali uning faoliyatini tashkil etish talab etiladi. Milliy madaniyat darajasiga ana shu ko‘rsatgichlarga qarab baho beriladi, o‘lchanadi, uning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlab olinadi. Milliy madaniyatning integratsiya jarayoni Internet, AKT, ijtimoiy tarmoqlar orqali yanada jadallashmoqda. Shuningdek, «Madaniyat kunlari», «Adabiyot va san’at», «Sharq taronalari», «Baxshichilik san’ati», «Mumtoz qo‘shiqlar», «Xalq hunarmandchiligi san’ati» kabi turli xil festival va tanlovlar tashkil etilishi ham bunda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: «Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda ma’rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma’naviy mulki bo‘lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir»[5], deya ta’kidlaydi. Ya’ni, milliy-ma’naviy meros ayni damda umuminsoniy madaniyat mahsuli ekanligiga ishora qilishmoqda.

Millat o‘z madaniyatiga befarq qarasa, oxir-oqibatda millat o‘z ona tili, madaniyatidan mahrum bo‘lib qolishi mumkin. Bu millat global o‘zgarishlar va yutuqlar ta’siriga javob bera olmaydi. Yoki bu global geosiyosiy mafkuralar va siyosat ta’siriga tushib qoladi. Global yutuqlardan, yangiliklardan oqilona foydalanish, demokratik taraqqiyotga, milliy madaniyatlarni o‘zaro rivojiga, boyishiga asos yaratadi.

O‘z davrida ma’rifatli olim Abdulhamid Cho‘lpon shunchalik kuyib aytganki, «Qondoshlar. Biz shaharlik bo‘lganmiz. Ammo ba’zi dehqonlardan shuni iltimos qilmoqchimizki, biz Yevropa madaniyatining shishaga, axloqsizlikka yo‘g‘rilgan madaniyatiga taqlid qilmasdan, yaxshi tomonlarini ya’nikim, fan, hunarmandchilik, sanoatga o‘xshash madaniyati o‘rganmoqchimiz va shuni ham aytib o‘tish kerakki, Yevropa modasi va buzuq axloqdan namuna olish bizni qashshoqlik, asirlik va qullikga olib boradi. Siz bunday bo‘lishdan saqlaning»[6].

Globallashuv sharoitida insoniyatning milliy-madaniy istiqboli va taraqqiyoti uch bosqichda namoyon bo‘ladi:

Birinchi bosqich - insonga yoshligidan singdirilgan milliy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, diniy-ruhiy tuyg‘ulardan iborat. Bu pallada u o‘z oilasi, mahallasi, qarindosh-urug‘lari, millati, hududi bilan birligini, uning tarkibiy qismi ekanligini his etadi. Natijada, uning ongi va qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadi. Bu jarayonda shaxsda haqiqiy fuqarolik tuyg‘ulari shakllanadi.

Ikkinchi bosqich - mafkura ko‘rinishidagi ma‘lumot, axborot to‘plash, asosan so‘z, mulohaza, ibrat, g‘oya va nazariyalar darajasida ifodalanadi. Inson ma‘naviy meros, qadriyatlar bilan tanishadi va ularni o‘zlashtiradi, yangilikni dunyoqarashiga singdiradi. Bu - ishonchdir. Taassufki, yoshlarimizda ma‘naviy merosimiz haqidagi bilimlar hamon sayozligicha qolib ketmoqda.

Uchinchi bosqich – bilim, ijodiy izlanish bilan belgilanadi. U odamlarning tafakkurida ma‘rifat, dunyoviy ma‘naviyat timsolida namoyon bo‘ladi. Buyuk allomalarimizning qudrati ana shu dunyoviy ma‘naviyatni diniy bilimlar, ma‘naviyat bilan uzviylikda kamolga yetkazganliklaridadir.

Shu o‘rinda, bizda milliy-ma‘naviy merosimiz istiqboli yorqin desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, «beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonamiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlangan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me‘morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma‘naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kam topiladi»[7].

Madaniy qadriyatlar tamoman yo‘q bo‘lib ketmaydi, lekin ular o‘z darajalaridan boshqacha tus oladi. Har qanday kichik bir yangi elementning paydo bo‘lishi iyerarxiyaning barcha boshqa elementlarini o‘zgarishiga olib keladi. Milliy madaniyatning integratsiya jarayonlarida adabiyot, san‘at, kompyuter texnologiyasi, sport sohalari ham milliy madaniyatni boyishiga xizmat qiladi.

Milliy madaniyat yuksalib borgan sari, umuminsoniy madaniyat yutuqlaridan foydalanish va uning darajasiga intilish ehtiyoji ortib boradi. Bu milliy madaniyatni zamon talablaridan ortda qolmasligini ta‘minlaydi. Milliy madaniyatning integratsiyalashishi demokratik umuminsoniy madaniyatni yuksalishi uchun asos yaratadi. Bu ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Ma‘naviy hayotimizni yangilash, uni yanada yuksaltirish borasida mamlakatimizda o‘ziga xos demokratik tajriba rivojlanmoqda. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasidagi belgilangan vazifalar amalga tadbiiq etilib, «Obod xonadon», «Obod ko‘cha», «Obod qishloq», «Obod mahalla», «Obod markaz», «Yoshlar - kelajagimiz» kabi dasturlar, hamda «Beshta muhim tashabbus», «O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi», «Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi» hozirgi sharoitda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning natijasida, islohotlar ko‘lami mamlakatimizning eng chekka hududlarini ham qamrab olib, hududlarning me‘moriy qiyofasini tubdan yangilanishi, hamda xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda milliy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tirof etish va uni umuminsoniy madaniyat bilan dialektik aloqadorligini hisobga olish uning o‘zaro integratsiyalashish jarayoni uchun ob‘yektiv sharoit yaratdi. Shuning uchun ham madaniyatning

ikki darajasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Umuminsoniy madaniyat darajasida milliy madaniyatning namoyon bo'lishi, milliy xususiyatlarni saqlab qolgandagina o'zini oqlaydi va turli madaniyatlar rivojida madaniyatlar xilma xilligini amalda ta'minlaydi.

Rivojlanishning yangi bosqichiga kirgan O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, xalq ijodiyotini yanada takomillashtirish;
- Milliy madaniyatni rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;
- Milliy-madaniy sohada davlat-xususiy sheriklikni joriy etilishi;
- Aholining madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqib, madaniy xizmatlar sifatini yaxshilash;
- Iste'dodli yoshlarni o'qitish, bu borada yuqori malakali kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish;
- Sog'lom raqobat muhitini yaratish.

Hozirgi global o'zgarishlar milliy va umuminsoniy madaniyatlar rivojiga va uning bir – biriga ta'siriga hamda integratsiyalashish jarayonlariga o'zining turli xil ta'sirini ko'rsatmoqda. Umuminsoniy madaniyat milliy-madaniy xususiyatlar negizida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun milliy va umuminsoniy madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi uning yo'qolib ketishiga emas, balki milliy madaniyatning umuminsoniy madaniyat bilan yaqinlashishiga xizmat qilishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Bugun global yutuqlar sharoitida milliy madaniyatni umuminsoniy madaniyat bilan integratsiyalashishiga shart – sharoit va imkoniyatlar ko'paymoqda. Hozirgi sharoitda ilm-fan, texnika taraqqiyoti axborot kommunikatsiya tizimi, Internet, global yutuqlar integratsiyalashish jarayoni uchun ob'yektiv muhit yaratmoqda.

Guvohi bo'layotganimizdek, bugun G'arb madaniyati o'ziga xos ustunlikka ega bo'lib, biz buning ta'sirida o'z milliylikimizni yo'qotmasligimiz, aksincha milliy madaniyat rivojini islohotlarning asosiy mezoni sifatida ko'tarishimiz lozim. Yurtboshimiz fikri bilan aytganda: «Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat - bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim»[8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan «On increasing the effectiveness of spiritual and educational work and raising the development of the sphere to a new level» // People's

word, 2017, July 29.

2. Kravchenko A.I. Cultural science. -M.: Academic project, 2001. -P.22.

3. Inozemsev V. Westernization as globalization and «globalization» as Americanization //Journal of Questions of philosophy. –M., 2004. -№4. –P. 60.

4. Хантингтон С. Запад: уникальность, а не универсальность // <http://www.russ.u/journal/perestot /97-10-15/ hantin.htm> – 15.10.1997

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Toshkent. // Ma‘rifat, 2017 yil 23 iyun

6. Abdulhamid Chulpan. Railways of our Motherland in Turkistan // Motherland. –Tashkent, 1994. -№36.

7. Каримов И.А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. –Б.3-4.

8. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-uchinchi-renessans-davriga-madaniyat-va-sanat-rivozhi-bilan-qadam-qoyadi_275931